



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 19.04.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO TADQIQOTLARDAGI ISHTIROKI

Tursunali Tolibjonovich Turg‘unov

Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

Uzbekistan

avpmm@mail.ru

Annotatsiya. Ma’lumki, 2030 yilga qadar Xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Mazkur hujjatning birinchi bandida PISA xalqaro tadqiqotida O‘zbekistonning ishtirokini ta’minlash va 2030 yilga borib, kuchli 30 talikka kirishga erishish maqsadli yo‘nalishda belgilangan. Ya’ni, ta’lim tizimi uchun strategik vazifa belgilab berilgan.

Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: PISA, TIMSS, PIRLS, ta’lim, xalqaro, baho, tadqiqot, strategik, barqaror, kompetentlik, matn, daraja.

Аннотация: Как известно, утверждена Концепция развития народного образования до 2030 года. В первом пункте данного документа определено участие Узбекистана в международном

исследовании PISA и достижение цели — к 2030 году войти в число тридцати лучших стран. То есть для системы образования установлена стратегическая задача.

В настоящее время в развитых странах мира уделяется особое внимание повышению качества образования и достойному участию в международных оценочных процессах. Республика Узбекистан также реализует ряд положительных мер по формированию навыков работы с заданиями в рамках международных оценочных программ, таких как PISA, TIMSS, PIRLS, направленных на подготовку к международным исследованиям.

Ключевые слова: PISA, TIMSS, PIRLS, образование, международный, оценка, исследование, стратегия, устойчивость, компетентность, текст, уровень.

Abstract: As is known, the Concept for the Development of Public Education until 2030 has been approved. The first clause of this document outlines Uzbekistan's participation in the international PISA study and sets a targeted goal of joining the top 30 countries by 2030. In other words, a strategic task has been defined for the education system.

Today, developed countries around the world are paying special attention to improving the quality of education and ensuring meaningful participation in international assessment processes. The Republic of Uzbekistan is also undertaking a range of positive initiatives to develop the skills necessary for working with tasks within the frameworks of international assessment programs such as PISA, TIMSS, and PIRLS, aimed at preparing for participation in international studies.

Keywords: PISA, TIMSS, PIRLS, education, international, assessment, research, strategic, sustainable, competence, text, level.

Language: Uzbek

Citation: Turgunov, T. (2025). PARTICIPATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL RESEARCH. *Universal International Scientific Journal*, 2(4), 124–130. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1505>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15250585>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Ma'lumki, 2030 yilga qadar Xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Mazkur hujjatning birinchi bandida PISA xalqaro tadqiqotida

O'zbekistonning ishtirokini ta'minlash va 2030 yilga borib, kuchli 30 talikka kirishga erishish maqsadli yo'nalishda belgilangan.

Ya'ni, ta'lim tizimi uchun strategik vazifa belgilab berilgan.

Dastlab PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro baholash dasturlarining mazmun-mohiyati xususida qisqacha so'z yuritamiz.

PISA – (Programme for International Student Assessment) ta'lim oluvchilarning ta'lim yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturi va ta'lim sifati monitoringi bo'lib, 15 yoshli o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o'qish bo'yicha bilim va ko'nikmalari, zamonaviy jamiyatda to'laqonli faoliyat yuritishlari, keng ko'lamlı muammolarnı hal etishlari uchun zarur kompetentlik darajasini o'rganadi.

Ushbu dastur Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development) tomonidan amalga oshiriladi.

PIRLS – (Progress in International Reading Literacy Study) bu turli mamlakatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilari tomonidan o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasini baholashning xalqaro tizimi va u asosida olib boriladigan xalqaro tadqiqot.

TIMSS – (Trends in Mathematics and Science Study) matematika va Science

ta'limi sifatini baholashga oid xalqaro tadqiqot bo'lib, IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. TIMSS tadqiqotlarida 4-sinf va 8-sinf maktab o'quvchilari matematika va tabiiy fanlardan o'z bilimlarini sinab ko'radi.

Dasturda ishtirok etayotgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda. Agar 2015 yilda TIMSS tadqiqotida 57 davlat ishtirok etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 60 dan ortiq davlatni tashkil etdi. Turli yillarda Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Gonkong, Belgiya ta'lim tizimi eng yuqori balga ega bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ta'limning sifati professor-o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasidan yuqori bo'la olmaydi. Ta'lim beruvchi eski kategoriyalar bilan fikr yuritar ekan, hech qanday texnologiya dars samaradorligini oshira olmaydi. Ta'lim sifatini ta'minlashda interfaol axborot-ta'lim muhitini yaratish, inson shaxsiga hurmat, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'limni demokratlash- tirish katta ahamiyatga ega.

Ta'limning yangicha mazmuni ta'limni boshqarishni tubdan o'zgartirishni

taqozo etadi. O'z vaqtida va to'g'ri qaror qabul qila oladigan, resurslarni (vaqt, moliya, kadrlar, texnologik, KPI, forsayt) boshqara oladigan, kuchli intuisiyaga ega, shijoatli, notiq, innovasion tafakkurga ega, xarizmatik liderlarni shakllantirish masalasi o'ta muhim. Xalqaro dasturlarda munosib ishtirok etish uchun zamonaviy ta'lim dasturlari va darsliklar kontenti XXI asrning shaxsni o'zgarishlarga tayyorlash, ijtimoiy intellekt, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat kabi yana bir nechta bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmog'i lozim.

O'zbekistonda xam xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini, shuningdek, o'quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha savodxonligini rivojlantirish, o'qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish maqsadida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmog'ida. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalar sirasiga –

xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish, pedagog va o'quvchilarda PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, tanqidiy, ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, o'qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish kabilar kiradi.

Mamlakatimizda ilk marotaba 2021 yilning 5-14 aprel kunlari 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar o'tkazildi.

Shuningdek, 2022 yilning aprel oyida yurtimizdagi 202 ta maktabda PISA xalqaro baholash tadqiqotlari o'tkazildi. Tadqiqotda yurtimizning 15 yoshli maktab o'quvchilari tabiiy-ilmiy savodxonlik, matematik savodxonlik hamda o'qish savodxonlik yo'nalishlari bo'yicha ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi 2025 yilda PISA xalkaro baholash tizimida ikkinchi marotaba ishtirok etadi.

PISA xalkaro baholash tizimi xaqida ko'proq tushunchaga ega bo'lish uchun O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini

baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari tug'risida"gi karoriga murojat etdik. Mazkur xujjatda ta'lim tizimining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib ta'lim tizimida o'kish, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovasion metodlarini ishlab chikish va joriy etishga yunaltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalkaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffakiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash belgilandi.

Aynan bunungi kunda Andijon viloyatida PISA xalqaro baholash tizimida ishtirok etish jarayoniga viloyatdan 19 ta maktab (shundan 1 tasi Prezident maktabi) tanlab olingan. mavjud umumta'lim maktablaridan ushbu jarayonga

tayyorgarlik ishlari qizg'in olib borilmoqda. Tadqiqotda ishtirok etadigan 1750 nafar 15 yoshdagi o'quvchilar uchun 830 dona PISA tadqiqoti talablariga mos keladigan kompyuterlar bilan ta'minlandi, kompyuterga ehtiyoj to'liq qoplendi Viloyat pedagogik maxorat markazidan ushbu umumta'lim maktablariga ma'sul shaxslar biriktirilib, kundalik ishlarida amaliy yordamlar berilmoqda, o'qituvchilarning darslari tahlil qilib borilib,metodik yordam ko'rsatilib borilmoqda.

7-11 sinflarda tabiiy, matematika, ona tili va adabiyot hamda informatika fanlaridan dars beradigan o'qituvchilarning umumiy soni 337nafarni tashkil etib, shundan 219 nafari (64,9%) malaka toifali o'qituvchilar (56 nafari (16,6%) oliy malaka toifali, 81 nafari (24%) birinchi malaka toifali, 82 nafari (24,3%) ikkinchi malaka toifali),

118 nafari(35,1%) mutaxassis o'qituvchilar faoliyat yuritib kelmoqda. Ayni damda 19 ta maktabga ham tumandagi yuqori bilim salohiyatiga va pedagogik mahoratiga ega bo'lgan tajribali ustozlar biriktirilgan. Bundan tashqari, yo'nalishdagi fanlardan Prezident ta'lim

muassasalari agentligi tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan maktablardan tajribali pedagoglar ham amaliy yordam uchun jalb etilgan. O'quv seminar-trening mashg'ulotlari o'tib borilmoqda.

Maktabda o'qituvchilar va o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashi uchun sharoitlar yaratilgan, o'qituvchilar uchun metodik xonalar tashkil qilingan, kerakli jihozlar va o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlandi.

Tadqiqotda ishtirok etish uchun tanlab olingan maktablarning 2009-yilda tug'ilgan o'quvchilarining ro'yxati shakllantirilib, har bir o'quvchining tug'ilganligi haqida guvohnoma nusxalari tayyorlangan.

O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash va ularni qiziqishlarini oshirish maqsadida 2025 yil 15 mart va 9-aprel kunlari 15yoshli o'quvchilar o'rtasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Bilimdon o'quvchilar" tanlovi o'tkazildi. Andijon viloyatidan tanlab olingan 19 ta maktablarning o'quvchilarning ishtiroki ta'minlandi.

Bo'lib o'tgan tanlov natijalariga ko'ra Andijon viloyatidan jami 5 nafar o'quvchilar (Andijon shahar 17-

maktab, Andijon shahridagi Prezident maktabi, Asaka tumani 59-maktab, Izboskan tumani 10-maktab, Paxtaobod tumani 3-maktab o'quvchilari) eng yuqori ballni qo'lga kiritib, maktabgacha va maktab ta'limi vazirining faxriy yorlig'i xamda esdalik sovg'asi (noutbuk)ni qo'lga kiritdilar.

Bundan tashqari tadqiqot uchun tanlab olingan 19 ta maktablarning har birida haftaning har juma kunlarida 7-11 sinf (15 yoshli) o'quvchilari uchun tadqiqot yo'nalishlari doirasida jamoaviy intellektual (Zakovat – intellektual savol-javob o'yini, Breyn-ring – jamoalar savollarga tez javob berish, Kim millioner bo'lishni istaydi? – bilim va tezkor fikrlash va boshqa ta'limiy) o'yinlar hamda turli xil sinovlar tashkil etib kelinmoqda.

Intellektual o'yinlarda g'olib bo'lgan va yuqori natijalarni qayd qilgan o'quvchilar turli xil badiiy adabiyotlar va esdalik sovg'alari bilan rag'batlantirilib kelinmoqda. Cerebry platformasidan foydalanish tizimli yo'lga qo'yilgan, har bir maktabda o'quvchilarning ishtirok etish grafiklari ishlab chiqilgan hamda samaradorlik darajasi haftalik taxlil qilib borilmoqda. A. Avloniy nomidagi

pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan tashkil etilgan test.avloniy.uz platformasida ham o'quvchilar tomonidan topshiriqlarni yechish tizimli yo'lga qo'yilgan hamda bugungi kun holatiga 8ta topshiriq to'liq yakunlangan.

Bunda PISA xalqaro baholash tizimidan foydalanishning yana bir asosiy muhim jihatlaridan biri- bu o'quvchilarning savodxonligi hamda

bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish, 15 yoshli bolalarning bilim darajasi miqdoriy ko'rsatkichini adolatli aniqlash va xalqaro miqiyos bilan solishtirish hamda intellektual salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilishligini tushuntirilmoqda. PISA xalqaro baholash tizimining natijasiga qarab, o'qituvchi va o'quvchilar o'zlarining galdagi vazifalarini aniq belgilab oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аметовна, Ю. Т., Назаровна, К. Х. (2020). Применение интеграции при обучении русскому языку в национальных группах. Сўз санъати, (3).
2. Yuldasheva, T., Kadirova, K. (2020). Teaching Russian with Innovative Approach. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(7).
3. Юлдашева, Т. А. (2021). Методы исследования в методике преподавания русского языка. Academic research in educational sciences, 2(2).
4. Yuldasheva, T. A., Begimova, A. (2022). The Role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in our Free and Prosperous Life. International Journal
5. Юлдашева Т. А. (2021). Русский язык в школе и в вузе: проблемы изучения и преподавания. Экономика и социум, 9(88), 1015-1021.
6. Юлдашева, Т. А. (2021). Обучение языковой коммуникации на русском языке. Экономика и социум, 3(2), 593-596.